XALQ DEPUTATLAR JIZZAX VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 9 - fevral VI-51-21-3-0-K/24 Jizzax viloyati hokimligi

Baxmal, Zomin va Forish tumanlaridagi ayrim aholi punktlarini nomlash va qayta nomlash hamda Zafarobod tumanidagi “Bo‘ritesken” va “Uchog‘och” aholi punktlari nomini davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Baxmal tumani komissiyasining 1 ta, Zomin tumani komissiyasining 5 ta, Forish tumani komissiyasining 1 ta ilovada nomlari keltirilgan jami 7 ta aholi punktlari va qishloqlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari hamda Zafarobod tumani komissiyasining bugungi kunda aholi yashamaydigan 2 ta “Bo‘ritesken” va “Uchog‘och” aholi punktlari nomini davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risidagi takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 18-oktabrdagi 03/081032-sonli, 2023-yil 16-avgustdagi 08-06377-sonli, 2023-yil 26-iyuldagi 08-05712-sonli va 2023-yil 15-maydagi 08-03500-sonli ekspertiza xulosalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari

bo‘yicha Baxmal tumani komissiyasining 1 ta, Zomin tumani komissiyasining 5 ta, Forish tumani komissiyasining 1 ta ilovada nomlari keltirilgan jami 6 ta aholi punktlari va qishloqlarni nomlash va qayta nomlash hamda Zafarobod tumani komissiyasining bugungi kunda aholi yashamaydigan 2 ta “Bo‘ritesken” va “Uchog‘och” aholi punktlari nomini davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risidagi takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 18-oktabrdagi 03/081032-sonli, 2023-yil 16-avgustdagi 08-06377-sonli, 2023-yil 26-iyuldagi 08-05712-sonli va 2023-yil 15-maydagi 08-03500-sonli ekspertiza xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Baxmal tumani komissiyasining 1 ta, Zomin tumani komissiyasining 5 ta, Forish tumani komissiyasining 1 ta ilovada nomlari keltirilgan jami 6 ta aholi punktlari va qishloqlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari hamda Zafarobod tumani komissiyasining bugungi kunda aholi yashamaydigan 2 ta “Bo‘ritesken” va “Uchog‘och” aholi punktlari nomini davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (S.Mirzaqobilov), viloyat Statistika boshqarmasi (D.Mulladjanov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (N.Sidikov), Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (S.Qodirqulov), viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (B.Mamatov), Baxmal tumani hokimi v.b. (N.Sharipov), Zafarobod tumani hokimi (O‘.Raxmanov), Zomin tumani hokimi (A.Abdug‘aniyev) va Forish tumani hokimi (I.Matiyev) hamda mutasaddi hududiy davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mazkur qarorga muvofiq Baxmal, Zafarobod, Zomin, Forish tumanlaridagi nomlangan, qayta nomlangan va davlat reyestridan chiqarilayotgan aholi punktlari va qishloqlar nomlarini belgilangan tartibda statistika hisobotlarida aks ettirish va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (G‘.Qodirov) Zafarobod, Zomin va Forish tumanidagi nomlangan, qayta nomlangan va davlat reyestridan chiqarilayotgan aholi punktlariga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (N.Sidikov), Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi

(S.Qodirqulov), viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (B.Mamatov), Baxmal tumani hokimi v.b. (N.Sharipov), Zafarobod tumani hokimi (O‘.Raxmanov), Zomin tumani hokimi (A.Abdug‘aniyev) va Forish tumani hokimi (I.Matiyev) birgalikda qayta nomlangan aholi punktlari va qishloqlarga belgilangan tartibda zamonaviy dizayn asosidagi peshlavhalar va yo‘l ko‘rsatkich belgilari o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (B.Mavlyanov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (N.Sidikov), Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (S.Qodirqulov), Baxmal, Zafarobod, Zomin va Forish tumani hokimliklari bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan aholi punktlarini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining davlat reyestri bazasiga kiritilishini ta’minlasin.

7. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Adilov), Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi (E.Shermonov) va “Jizzax haqiqati” - “Djizakskaya pravda” gazetalari tahririyati (B.Nazarov)ga ushbu qaror mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustanov, viloyat hokimining o‘rinbosari H.Hasanov hamda viloyat hokimining maslahatchisi B.Mavlyanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **E.Saliyev**

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2024-yil 9-fevraldagi
VI-51-21-3-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Baxmal, Zomin va Forish tumanlaridagi nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlari va qishloqlar RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Viloyat komissiyasi tomonidan aholi punktlariga berilgan takliflarga sharh
1	2	3	4	5	6
Baxmal tumanidagi nomlanayotgan qishloq					
1	Qishloq	Sangzor MFY	Nomsiz	Xoltoy	Sangzor mahallasining ushbu qishlog‘i qadim Qo‘ng‘irot eliga bog‘liq bo‘lib bu mahallada Chubor, Xoltoy, qishloqlari qadimdan mavjud. Qishloq nomi ot nomi bilan bog‘liq bo‘lib, bu qishloqda mashhur polvonlar bo‘lgan, Chubor, Xoltoy nomli otlar O‘rta Osiyo bo‘ylab o‘tkazilgan ko‘pkari va shu kabi musobaqalarda doim ilg‘or bo‘lgan. Xolli toy ma’nosida
Zomin tumanidagi nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlari					
2	Aholi punkti	Qo‘shtol MFY	Nomsiz	Qangli	Qadimgi turkiy etnoslardan birining nomi. Rashiddin va Abdulg‘ozi Bahodirxon kabi olmlarning kitobida “Qangli” katta qudratli qadimiy urug‘lardan biri ekanligi aytilgan. (“Zominnning til qomusi”) kitobidan.
3	Aholi punkti	Birlik MFY	Nomsiz	Birlik	Bir yoqadan bosh chiqarib birlashganlik, hamjihatlik, yakdillik ma’nosida.
4	Aholi punkti	Qayirma MFY	Kattabog‘	Qayirma	Mahalla nomi o‘zgarishi bilan bog‘liq.

5	Aholi punkti	Taraqqiyot MFY	Qayirma	Taraqqiyot	Mahalla nomi o‘zgarishi bilan bog‘liq.
6	Aholi punkti	To‘rttom MFY	Quyi Sirg‘ali	Pastki Sirg‘ali	Xalq tilida “quyi” so‘zidan ko‘ra, “pastki” so‘zi ko‘proq ishlatiladi. Shu bois Pastki Sirg‘ali deb atalib kelinadi.
Forish tumanidagi nomlanayotgan qishloq					
7	Qishloq	“Narvon” MFY	Nomsiz	Etbo‘rboy	**Etbo‘rboy** – nomi 92 bog‘li o‘zbek urug’laridan biri sanaladi. Shuning uchun ham shu hududda yashovchi mahalla faollari o‘z qishlog‘ini mazkur nom bilan atashni talab qilib so‘ramoqda.

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2024-yil 9-fevraldagi
VI-51-21-3-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyatining Zafarobod tumanidagi nomi davlat reyestridan chiqarilishi lozim bo‘lgan aholi punktlari

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Viloyat komissiyasi tomonidan aholi punktlariga sharh
1	2	3	4	5	6
1	Aholi punkti	Chimqo‘rg‘on QFY	Bo‘ritesken	Davlat reyestridan chiqarish lozim	Ushbu aholi punkti hududida qozoq millatiga mansub aholi yashagan. Bugungi kunda aholi to‘liq Qozog‘iston Respublikasiga ko‘chib ketganligi sababli hozirda ushbu hududda hech kim yashamaydi. Lekin davlat reyestrida “Bo‘ritesken” nomli aholi punkti ro‘yxatda turibdi. Ushbu aholi punkti nomini davlat reyestridan chiqarish maqsadga muvofiq.
2	Aholi punkti	Chimqo‘rg‘on QFY	Uchog‘och	Davlat reyestridan chiqarish lozim	Ushbu aholi punkti hududida qozoq millatiga mansub aholi yashagan. Bugungi kunda aholi to‘liq Qozog‘iston Respublikasiga ko‘chib ketganligi sababli hozirda ushbu hududda hech kim yashamaydi. Lekin davlat reyestrida “Uchog‘och” nomli aholi punkti ro‘yxatda turibdi. Ushbu aholi punkti nomini davlat reyestridan chiqarish maqsadga muvofiq.